



O'RTA OSIYO ERKPARVAR JADIDLARI FAOLIYATIDAN.
ABDULLA QODIRIY.

Safarova Nargiza Nayimovna

O'zMU Tarix fakulteti II bosqich magistri

Anotatsiya: ushbu maqolada jadidchilik harakatining taniqli namoyondasi Abdulla Qodiriy siymosi, adib portretining yaratilishi, uning xarakteridagi xususiyatlari, Qodiriy hayoti va ijodining o'rganilishi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: milliy uyg'onish davri, Qodiriy ijodining o'rganilishi, Bahodir Karimov, Habibulla Qodiriy, adib portreti

Annotation: this article talks about the figure of Abdulla Qadiri, a well-known representative of the Jadidism movement, the creation of a writer's portrait, his character traits, the study of Qadiri's life and work.

Key words: period of national renaissance, study of Qadiri's work, Bahadir Karimov, Habibulla Qadiri, portrait of the writer

Аннотация: в данной статье говорится о фигуре Абдуллы Кадири, известного представителя движения джадидизм, создании портрета писателя, чертах его характера, изучении жизни и творчества Кадири.

Ключевые слова: период национального возрождения, изучение творчества Кадири, Бахадир Керимов, Хабибулла Кадири, портрет писателя.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida, tarixida tub burilish yasagan o'ziga xos "renesans" davri bo'ldi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.Bu davr nafaqat ongda, tafakkurda, balki o'zlikni anglashda evrilish yasadi.Jadidchilik harakati va bu harakat namoyondalarining ma'naviy kurashlari milliy uyg'onish davrining asosini tashkil etgani hech kimga sir emas.

Jadid adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Abdulla Qodiriy o'zbek olimlari tomonidan hayoti va ijodi eng ko'p o'rganilgan shaxs sifatida e'tirof etiladi.

Oybekning "Qodiriyning ijod yo'li", Habibulla Qodiriyning "Otam haqida", "Diydor qiyomatga qolsa netayin", Sherkon Qodiriyning "37-xonodon", Ma'sud Abdullayevning "O'tganlar yodi", Umarali Normatovning "Qodiriy bog'i", "Qodiriy mo'jizasi", "Qodiriyning so'nggi iltijosi", Matyoqub Qo'shjonovning "Qodiriy-erksizlik qurboni", "O'zbekning o'zligi", "Abdulla Qodiriyning tasvirlash mahorati", Nabijon Boqiyuning "Qatlnoma", Bahodir Karimovning "Abdulla Qodiriy fenomeni", "O'tkan kunlar" ibrati", "O'tkan kunlarga qaytib", A.Rasulovning "Romanning mashaqqatli yo'li", Sobir Mirvaliyevning "Abdulla Qodiriyning kashfiyoti" singari asarlar Qodiriy portreti, adibning fe'l-atvori va odatlari, ijodi va hayotining tahlikali davri haqida ma'lumot beruvchi eng sara asarlardir.Abdulhamid Ismoilning "Jinlar bazmi yoxud katta o'yin", Xurshid Do'stmuhammadning "Yolg'iz", Xayriddin Sultonovning "Ra'no



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

gulining suvi”, “Moziydan bir sahifa”, “Andisha” singari asarlarida esa o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy badiiy obrazi paydo bo‘ldi.

Qodiriy ijodiga qiziqish zamondoshlari davridanoq boshlangan. Ammo ming taassuf bilan aytish joizki, ayrim munaqqidlar tomonidan yozilgan maqolalardagi A.Qodiriyga munosabat aybnomalar ruhidadir. Qodiriyshunos olim Bahodir Karimov aytganidek: “30-yillarda S.Husayn, M.Buzruk singari o‘zbek munaqqidlari adibning “millatchi”, “mayda burjuaziya” vakili ekanini yozgan, romanlaridan sho‘rocha talablarni qoniqtiradigan manzaralar topolmay ayblagan bo‘lsalar, Azimzoda Abdulla Qodiriyni o‘z maqolasida “bo‘lshaviklarga sotilg‘on” hisoblaydi; adib romanlarini o‘qib, unga shunday aybni yuklaydi”.

Abdulla Qodiriy shaxsiyatini to‘laroq gavdalantirishda bizga adibning o‘g’li Habibulla Qodiriy qalamiga mansub “Otam haqida” asari eng ishonchli manba sifatida ma’lumot beradi. Habibulla Qodiriy otasining iste’dodiga, uning ijodiga muhabbat bilan qaraydi, o‘z o‘rnida adolat mezonlariga tayanib haqiqat va real voqealar haqida so‘zlaydi. “Ba’zilar dadangizning qo‘lga qalam olishiga oilangizdan yoki qarindoshlariningizdan biron ma’rifatli kimsaning ta’siri bo‘lmadimikan?...” deb mulohaza aytadilar. Ba’zi keksalar esa “Julqunboyning qalam tug’ma edi...” deb mubolag’a qiladilar. U kezlarda oilamizda yoki qarindoshlarimizda biron sohibi ilm yoki sohibi qalam bo‘lmagan desam balki, yanglishmasman. Shu bilan birga Qodiriy tug’ma talant egasi bo‘lib, o‘z asarlarini hech mahal qo‘lga qalam olgan kundan boshlab yaratmaganlar...” [2;60]

Chindanda, Qodiriy tug’ma iste’dod, tug’ma otash yurak adib edi. Shu bilan birga Habibulla Qodiriy otasining portretini, tashqi qiyofasini shu asarida aniq tasvirlab bergen: “ Dadam o‘rtalig‘i, keng yelka, qoradan kelgan edilar. Yuzlari to‘garkka moyil, uzun timqora sochlari silliq taralgan, keng peshana, qora yassi qosh, qisiqroq zulukdek qora jozibali ko‘zlari hamisha uzoqni ko‘rgandek o‘ychan, burun qanotlari biroz kerilgan, qisqa qora mo‘labli, lablari yupqa-qalin oralig‘ida, pastki jag’lari sezilar-sezilmash keng-o‘sinq , iyaklari cho‘qqidan kelgan edi...” [2;65]

Qodiriy xarakteridagi bosiqlik undagi insonparvarlik xislatlari yana bir zamondoshi Zarifa Saidnosirova tomonidan ham o‘zining “Oybegim mening” asarida qayd etilgan. Hamma uchun 1932-33-yillar og’ir kelgan damlar bo‘lib , ocharchilik xalqni qiyinab qo‘ygan, bug’doy unmagan qiyin zamon bo‘lib qoladi. Oybekning rafiqasi Zarifa Saidnosirova shu og’ir damlarda Qodiriyning beminnat yordamini eslab, yo‘l-yo‘lakay adib xarakterini, undagi insoniy fazilatlarni ham sanab o‘tadi. “Abdulla Qodiriy 20-yillardayoq xalq o‘rtasida mashhur bo‘lgan yozuvchi edi. U Oybekni astoyidil hurmat qilar, shu tufayli o‘z nasibasini bizga in’om qilmoqchi bo‘lgandi o‘shanda... “U jismoniy mehnat ila ko‘p mashg‘ul bo‘lar, bog’iga o‘zi qarar, o‘z mehnat kuchi ila yetishtirgan hosilni bozorga eltishi-da unga yarashar edi..

Ko‘rinishidan u hiyla qo‘rs va to‘ng odam edi. Lekin ko‘ngliga yoqqan kishilar bilan xushmuomalada bo‘lar, ularga iltifot ko‘rsatar edi... ”. [5;189] Yuqoridagi



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

chizgilardan shu narsa anglashiladiki, Qodiriy ko‘zi to‘q, ocharchilik davrida ham yaqinlariga yordam berishdan o‘zini ayamaydigan, nazari baland shaxs bo‘lgan.

Zero, Abdulla Qodiriy singari ma’naviy dunyosi boy, insonparvar, iymoni butun adiblarning qoldirgan boy merosi hali-hanuzgcha qiziqish va mehr bilan o‘qlishining boisi ham adib ijodiy dunyoqarashidagi nafosat, haqiqat, hayot va insoniylikka sodiqlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodir Karimov “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur” kitobidan bob.*Google. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bahodir-karim-dunyo-olimlari-nigohi-abdulla-qodiriy-va-germenevtik-tafakkur-kitobidan.html>.*
2. Habibulla Qodiriy.Otam haqida. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1983.
3. Normatov U. Qodiriy haqida qaydlar. “**O‘zbekiston adabiyoti va san’ati**”. 2004 yil 21-son.
4. Normatov U. Qodiriy bog‘i. –Toshkent: Yozuvchi, 1995.
5. Zarifa Saidnosirova.Oybegim mening. –Toshkent:Yangi asr avlodi, 2022.

